

**DUNYONING YETTI MO‘JIZASIDAN QADIMGI MISR:
PIRAMIDALAR VA DAHMALAR**

Alijonov Javoxir Xusanboy o‘g‘li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filiali “Tarix” fakulteti I

bosqich talabasi

Javoxiralijonov778@gmail.com

+998 93 199 08 06

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Misrning piramidalari va ehromlari, ularning kelib chiqishi, me‘moriy tuzilishi, diniy-falsafiy ahamiyati hamda Misr sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni keng yoritiladi. Dastlab Abu Ro‘vosh, Giza va Saqqara kabi mashhur yodgorlik maydonlari haqida batafsil ma‘lumot berilib, ularning tarixiy funktsiyasi, fir‘avnlarni hukmronligi davridagi qurilish jarayonlari, diniy marosimlar bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Piramidalarning qurilish texnologiyalari, ulardan foydalanilgan materiallar, ularning astronomik va geografik moslashuvi, shuningdek, ularni barpo etishda qatnashgan mehnatkashlar hayoti haqida ilmiy fikrlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada piramidalar bilan bog‘liq zamonaviy arxeologik topilmalar va restavratsiya ishlari ham o‘z aksini topgan. Ushbu izlanishlar, qadimgi Misr yodgorliklarining jahon tarixidagi beqiyos o‘rnini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Misr, Piramidalar, Ehromlar, Giza, Saqqara, Abu Ro‘vosh, Fir‘avnlarni, Arxeologiya, Me‘morchilik, Diniy marosimlar, Madaniy meros

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются пирамиды и храмы Древнего Египта, их происхождение, архитектурные особенности и религиозно-философское значение в развитии египетской цивилизации. Особое внимание уделено таким археологическим зонам, как Абу-Раваш, Гиза и Саккара, где представлены крупнейшие и древнейшие монументальные сооружения. Анализируются функции пирамид, процессы их строительства в



разные периоды правления фараонов, особенности используемых материалов и технологий, а также космологические и географические принципы их ориентации. В статье также освещены современные археологические исследования и попытки реставрации древнеегипетских памятников. Результаты исследования подчёркивают уникальную роль египетских пирамид в мировой истории и культурном наследии человечества.

Ключевые слова: *Древний Египет, пирамиды, храмы, пирамида Джосера, комплекс Гизы, Саккара, погребальные традиции фараонов, история архитектуры, мастаба, древняя цивилизация, памятники на берегах Нила, религиозные представления и ритуалы.*

ABSTRACT: *This article provides a comprehensive overview of the pyramids and monumental structures of Ancient Egypt, covering their origins, architectural design, and religious-philosophical significance. Major archaeological sites such as Abu Rawash, Giza, and Saqqara are discussed in detail, highlighting their historical functions, construction phases under different pharaohs, and their role in Egyptian funerary cults. The article examines the engineering methods, construction materials, and astronomical alignment of the pyramids, as well as the labor systems involved in their creation. Recent archaeological discoveries and restoration efforts related to these monuments are also explored. The study emphasizes the exceptional importance of Egypt's pyramids in world history and their enduring value as part of humanity's cultural heritage.*

Keywords: *Ancient Egypt, pyramids, temples, Pyramid of Djoser, Giza complex, Saqqara, pharaonic burial traditions, architectural history, mastaba, ancient civilization, monuments along the Nile, religious beliefs and rituals.*

Kirish. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi insoniyat tarixining eng ulugʻvor, sirli va chuqur tadqiqotlarga boy davrlaridan biri hisoblanadi. Nil daryosining quyi oqimida shakllangan bu sivilizatsiya minglab yillar davomida oʻzining betakror madaniyati, murakkab diniy qarashlari, rivojlangan ijtimoiy tuzilmalari va, eng muhimi, jahonga dongʻ taratgan meʼmoriy yodgorliklari bilan ajralib turgan. Ushbu



yodgorliklar ichida **piramidalar – ehromlar** alohida o‘rin egallaydi. Piramidalar nafaqat Misrning ramzi, balki butun insoniyatning ilmiy, madaniy va ruhiy taraqqiyotining yuksak bosqichini ifodalovchi abadiy inshootlardir. Qadimgi misrliklar uchun piramidalar oddiygina qabr emas, balki **fir’avnlarning ilohiy maqomini mustahkamlovchi**, ularning ruhini osmon sathidagi xudolar olamiga ko‘tarib boruvchi muqaddas majmualar sanalgan. Misr mifologiyasida fir’avn nafaqat shoh, balki tirik xudo, jamiyatning ilohiy tayanchi, osmon va yer o‘rtasidagi vositachi sifatida idrok etilgan. Shu boisdan piramida qurilishi – bu avvalo davlatning siyosiy qudrati, iqtisodiy salohiyati, diniy e’tiqodi va ilmiy bilimlari uyg‘unligining yorqin ko‘rinishidir. Piramidalar barpo etilgan davrda misrliklar matematika, geometriya, astronomiya va muhandislik sohalarida nihoyatda rivojlangan bilimlarga ega bo‘lgan. Yirik ohaktosh bloklarini o‘nlab kilometr masofalardan tashish, ularni mukammal aniqlik bilan joylashtirish, har bir piramidaning tom ustida yulduzlar turkumiga mos ravishda yo‘naltirilgan bo‘lishi – bularning barchasi qadimgi Misr ilm-fanining yuksak darajasidan dalolat beradi. Ayniqsa, Giza platosidagi Xufu, Xafra va Menkaura piramidalari nafaqat Misrning, balki dunyo me’morchiligining eng ulkan yutuqlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.[1]

Piramidalar shaklining o‘zi ham chuqur ramziy ma’noga ega. Misrliklar yer yaralishining ibtidosi bo‘lgan “ibtidoiy tepalik”ni (benben) piramida shaklida aks ettirganlar. Shuningdek, piramida quyosh nurlarining yerga tushish ko‘rinishini eslatgani uchun Ra – Quyosh xudosi timsoli ham hisoblangan. Shu sababli piramidalarning aksariyati yorqin oq ohaktosh bilan qoplangan, uzoqdan qaralganda ular go‘yo quyosh nuridek yarqirab turgan. Qadimgi Misr piramidalari evolyutsiyasi ham alohida ilmiy mavzu bo‘lib, dastlab sodda tuproq-tepalik ko‘rinishidagi tumuluslardan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik mastabalar ko‘rinishida rivojlangan va Djoser davriga kelib ilk zinapoya piramidasining paydo bo‘lishi bilan ulkan inshootlar qurilishiga asos solingan. To‘rtinchi sulola davrida esa haqiqiy piramida shakli mukammal me’moriy yechimga aylangan va bu davr insoniyat tarixidagi eng buyuk me’moriy mo‘jizalar yaratilgan davr sifatida qayd etiladi. Piramidalar nafaqat diniy marosimlar uchun mo‘ljallangan bo‘lgan, balki ular orqali davlatning



siyosiy qudrati ham namoyish etilgan. Ulkan qurilish jarayonida yuz minglab ishchilar, hunarmandlar, muhandislar, ruhoniylar, astronomlar va yozuvchilar ishtirok etgan. Bu esa piramida qurilishi o'z davrining eng yirik milliy loyihalaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. Aynan piramida qurilishlari tufayli Misr iqtisodiyoti, fan-texnika taraqqiyoti, transport tizimi va ijtimoiy tuzilmasi sezilarli darajada rivojlangan.[2]

Asosiy qism. Qadimgi Misr fir'avnlar kelajakdagi hayotini uning tanasi qanchalik yaxshi saqlanishiga bog'liq deb hisoblagan. Shuning uchun o'limidan so'ng ularning jasadi balzamlanib, mumiyolari ulkan toshpalaxsalar ostidagi ichki yashirin xonalarga joylashtirilgan. Dafn joyini qaroqchilardan yashirish uchun hatto ichki yo'laklar ham toshlar bilan berkitilgan. Bunday ulkan inshootning qurilishi aql bovar qilmas muhandislik san'atining namoyishidir. Masalan, katta piramida qurilishida 100 ming qul taxminan 20 yil davomida ishlagan. Har bir tosh blokning balandligi 7 m, eni esa 5,5 metr bo'lgan. Hech kim piramidalarining aniq yoshini bilmaydi. Iso alayhissalom tug'ilishidan ming yil oldin ham ular qadimiy va sirli edi. Giza shahridagi katta piramidaning barpo etilishi fir'avn Xeopsning 4-sulolasi davriga (miloddan avvalgi 2900-yil) to'g'ri keladi. Piramidalar maqsadiga ko'ra maqbaralardir. Piramidalar qurilishida tosh konlaridan Nil daryosi bo'ylab maxsus qayiqlarda olib kelingan ohaktosh va granit ishlatilgan. Buni bahorgi toshqin paytida faqat uch oy davomida qilish mumkin bo'lgan, ya'ni qurilish uchun zarur bo'lgan plitalarni olib kelish uchun 20 yil ichida 500 000 bor shunday qatnovni amalga oshirish kerak bo'lgan. Qayiqlardagi bloklar tosh yotqizilgan yo'l orqali piramida bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan maxsus platformaga tushirilgan. Keyin har biri ikki tonnaga yaqin og'irlikdagi bloklar bir guruh qullar tomonidan maxsus chanalarga ortilgan. Shundan so'ng qullarning boshqa guruhi arqonlar yordamida tekis yo'l bo'ylab, ulkan toshni qurilish maydonchasiga sudrab borgan. Bu jarayon har bir tosh bloki bilan takrorlangan. Katta piramidada ularning jami soni taxminan 2 300 000 ta. Piramida yuksala borgan sari ulkan qiya yo'l ham qurilgan. Ular orqali qullarning katta guruhi bloklarni yangi qurilish qavatiga olib borgan. Qadimgi yunon tarixchisi Herodot piramidalar qurilishining mohiyati haqida shunday degan: "Misrliklar o'z



fir'avnlarini ilohiy kuch sifatida ko'rganlar, shuning uchun ular o'z hukmdorlariga abadiy hayot berish uchun piramidalarni qurishgan." Qadimgi yunoniston tarixiga asoslanib Misrliliklar magiyaga ishonishganliklarini ham aytib o'tish mumkin. Magiya afsungarlik insoning tabiatdagi narsa, hayvonlar va boshqa kishilarga ta'sir etishiga ishonchga asoslangan, bevosita afsonalar bilan bog'langan.[3]

Piramidalar qurilish jihatidan ham murakkab ko'rinish jihatiga ega bo'lib ko'plab olimlar bu mavzu bo'yicha izlanishlar olib borishgan. Piramidaning ulkan ohaktosh bloklaridan tashkil topgan har bir qatori bir-biriga zich terilgan. Bloklarning tekis yuzasi ularni sementdan ham mahkamroq biriktirgan. Piramida o'rtasiga ishlov berilmagan bloklar joylashtirilgan, yuzaga yaqinlashgan sari ishlov berish sifati oshgan. Nihoyat ohaktosh plitalarining old yuzasi shu qadar astoydil silliqlanganki, hatto ularning tutashgan joylari deyarli ko'rinmas bo'lgan. Qoida tariqasida piramida o'tish joylari bilan bir-biriga bog'langan, 3 ta ichki xonaga ega bo'lgan. Amerikalik yozuvchi Mark Tven Piramidalarning hayratlanarligini va ularning jozibali sirlari borligi haqida shunday degan: "Piramidalar hayratlanarli, ammo insoniyatni yanada hayratda qoldiradigan narsa bu ularni qanday qilib qurishganini hali ham bilmasligimiz". O'tgan ming yillar davomida ko'pdan ko'p shaharlar va davlatlar vayronaga aylanib yo'q bo'lib ketsada, insoning aqlini shoshirib qo'yishga qodir bu piramidalar vaqtdan qo'rqmagan hali hamon o'z chiroyini va qaddini bukmay tik turishibdi.[4]

Xufu, Eng mashhur piramidalar Memfis shahri yaqinidagi uch fir'avn Xafra, va Menkaura uchun bunyod etilgan. Eng katta piramida ham Xufu uchun bunyod etilgan. Xufu piramidasining to'rt tomoni deyarli mukammal ravishda shimol, janub, sharq va g'arb tomonlarga yo'naltirilgan. Bu qadimiy muhandislar uchun katta yutuq edi. Xufu piramidasi taxminan 2,3 millionta tosh blokdan iborat bo'lib, har biri o'rtacha 2,5 tonna og'irlikka ega. Ba'zi bloklar esa 15 tonnagacha yetadi. Ba'zi piramidalarda hali ham ochilmagan yoki yangi topilgan yashirin xonalar mavjud. 2017-yilda olimlar Xufu piramidasida 30 metrlik noma'lum bo'shliqni aniqlashgan. Napoleon Bonapart (Fransuz sarkardasi), Giza piramidalariga qarab shunday degan: "Askarlar, bu piramidalarning tepasida ming yillik tarix sizlarga boqmoqda."



(Fransuz tilida: "Du haut de ces pyramides, quarante siècles vous contemplent.") Piramidalar haqida detektiv romanlar muallifi Agatha Christie ham o'z fikrini quyidagicha bayon etgan "Piramidalar-inson ongining sabr va buyuklik bilan qanday mo'jiza yaratishga qodir ekanini ko'rsatuvchi ramzdir."[5]

Musiqqa madaniyati eng qadimgi madaniyatlardan biri. Bizgacha yetib kelgan musiqqa madaniyatining ilk moddiy yodgorliklari miloddan avvalgi 3 -ming yillikka mansub. Bular turli musiqqa asboblari shiqqildoq, tartarak hamda chig'anoqlardan yasalgan hushtaklardir. Maqbaralar devorlariga ishlangan barelyeflar maishiy turmushda musiqqa keng tarqalganiga guvoxlik beradi. Ommaviy bayramlar, diniy marosimlar, mehnat jarayonlari musiqasiz o'tmagan. Musiqada bir ovozli musiqqa rivoj topgan. Yangi podsholik davrida ko'p ovozli musiqaning sodda shakllari ham paydo bo'lgan. Raqslar, sahna tomoshalari, badiiy adabiyot musiqqa bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Arfa, nay, yog'och va jez karnay, o'rgan, urma musiqqa asboblari keng tarqalgan. Qadimgi musiqqa ijrochilari professional musiqachi shoirlar mo'tabar zot sanalib, firavnlarga qarindosh deb hisoblanishgan. Ellinistik va Rim davrida Musiqqa o'ziga xosligini saqlab qolgan. Rim hukmronligi barham topgach, turk, arab va boshqa xalqlar musiqqa madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Musiqqa madaniyati taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilgan. Qadimgi Misr piramidalari bu inson tafakkurining, e'tiqodining va estetik didining timsoli. Ular o'zida me'moriy mukammallik, muhandislik dahosi va ruhiy ramziy ma'nolarni uyg'unlashtirgan. Bu inshootlar qadim zamonlarda piramidalari insoniyat tarixidagi eng buyuk arxitektura yodgorliklaridan biridir. Ular nafaqat misrshunoslar, balki keng ilmiy jamoatchilik uchun ham doimo qiziqarli mavzu bo'lib kelgan. Qadimgi Misr piramidalari, xususan, Giza platosidagi Xufu, Xafra va Menkaura piramidalari insoniyat tarixidagi eng buyuk arxitektura yodgorliklaridan biridir. Ular nafaqat misrshunoslar, balki keng ilmiy jamoatchilik uchun ham doimo qiziqarli mavzu bo'lib kelgan. Bu piramidalarning qurilishi haqida o'nlab nazariyalar mavjud bo'lib, ularning texnologiyasi, qurilish usullari va ishlatilgan materiallar haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tezisda qadimgi Misr piramidalari qurilishining tarixiy, ilmiy nazariyalar o'rganiladi.[6]



Tarixiy manbalar: Piramidalarning qurilish jarayonini tushunish uchun qadimgi manbalardan foydalanish juda muhim. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (Miloddan avvalgi V asr) Misrga tashrif buyurib, piramidaning qurilishi haqida yozgan. Uning so'zlariga ko'ra, piramida qurilishi davomida 100 000 ishchi ishlagan va ularning ko'pchiligi yillik harbiy xizmatdan ozod etilgan. Gerodotning yozuvlari tarixchilarga piramida qurilishi haqida asosiy manba sifatida xizmat qilgan, ammo ularning aniqligi ba'zan shubha ostiga olinadi. Giza platosidagi piramidalarning tarixiy shaxsiyatlari: Misrshunoslar, piramidaning qurilishiga oid boshqa qadimgi manbalarga, jumladan, piramida qurilishi vaqtida ishlagan ishchilarning nomlari yozilgan "Diary of Merer" Merer kundaligiga tayanishadi. Bu kundalikda qurilish ishlari, qilingan mehnatlar va tashkil etilgan jarayonlar haqida muhim ma'lumotlar mavjud.[2]

Misr davridagi rasmiy hujjatlar: Misrning amaldorlaridan biri bo'lgan Hemiunu (Xufu piramidasining bosh me'mori)ning nomi ham ko'plab manbalarda uchraydi. Bu tarixiy shaxs piramidaning asosiy qurilish boshqaruvchisiga aylangan va bu haqda ham qadimgi rasmiy yozuvlar mavjud. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlar: Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar piramidaning qurilish texnologiyasini yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratdi.

Merer kundaligi: Merer kundaligi (Miloddan avvalgi 2,500-yil atrofida yozilgan) Misrning Giza piramidalarini qurishda ishlagan ishchilar va ularning ish jarayonlarini tasvirlaydi. Bu kundalikda ko'plab qiziqarli tafsilotlar mavjud, xususan, Xufu piramidasining qurilishi bilan bog'liq ishlov berilgan toshlarni tashish uchun ishlatilgan maxsus qurilma va mehnat resurslari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

3D lazer skanerlash va geofizik usullar: Zamonaviy texnologiyalar yordamida piramidalarning ichki tuzilmalari va qurilish jarayonlari tahlil qilindi. 3D lazer skanerlash yordamida Giza piramidasining tashqi va ichki qismlari yanada aniqroq o'rganilgan. Geofizik tadqiqotlar esa piramidaning ichki bo'shliqlarini aniqlashda muhim rol o'ynadi, bu esa piramidaning qurilish metodlariga yangi qarashlarni taqdim etdi. **Ramplar va qurilish texnologiyalari:** Piramidaning qurilishi



haqida ko'plab ilmiy farazlar mavjud. Eng mashhurlaridan biri ramplar haqida bo'lib, ularning yordamida og'ir tosh bloklarini yuqoriga ko'tarish mumkin edi. Ko'plab ilmiy tadqiqotchilar, jumladan, Jean-Pierre Houdin, rampla tizimining ikki bosqichli variantini taklif qilishgan. Birinchi rampla piramidaning tashqi tomonida, ikkinchisi esa uning ichki qismida joylashgan deb taxmin qilinadi. Yog'och raylar texnologiyalari: Ba'zi tadqiqotchilar, yuqoriga ko'tarish jarayonida maxsus yog'och raylardan yoki siljitish texnologiyalaridan foydalanilgan deb hisoblashadi. Bu texnologiyalar yordamida og'ir bloklarni bir joydan boshqasiga ko'chirish osonlashadi. Toshlarini qayta ishlash texnologiyalari: Ko'plab arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, piramida qurilishida toshlarni qayta ishlashning o'ziga xos usullari bo'lgan. Misrda o'sha davrda yuqori sifatli marmar va qattiq toshlardan foydalanganlar, bu esa qurilishning kuchini ta'minlash uchun zarur edi.[2]

Nazariyalar: Astronavtlar va yuqori texnologiya: Bir qator tadqiqotchilar, xususan, Zecharia Sitchin va Erik von Deniken kabi shaxslar, piramidaning qurilishiga yuqon darajadagi texnologiyaning aloqadorligini ta'kidlagan. Ularning fikriga ko'ra piramidaning qurilishi uchun zarur bo'lgan texnologiya hatto boshqacha sivilizatsiyalardan kelgan bo'lishi mumkin.

Davidovits gipotezasi: Joseph Davidovitsning "geo-polimerlar" gipotezasi, piramidalar qurilishida faqat tabiiy toshlardan foydalanilganini rad etib, qurilish materiallari sifatida maxsus tayyorlangan "beton" bloklaridan foydalanganini taklif qiladi. Bu gipoteza zamonaviy ilmiy izlanishlarda o'rganilgan va piramidalar qurilishida kimyoviy jarayonlar va tasavvurlarni ko'rsatadi. Qadimgi Misr piramidalari qurilishi haqiqatda bir qator murakkab texnologik, ilmiy va madaniy savollarga javob berishni talab qiladi. Har bir arxeologik va tarixiy manba o'zining o'rni va ahamiyatiga ega. Zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar piramidalarning qurilishi haqidagi eski qarashlarga yangi yondashuvlarni taqdim etmoqda. Nazariyalar esa ilmiy muhitda hali ham bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Biroq, piramidalar qurilishi haqidagi aniq va keng qamrovli tasavvur hali to'liq shakllanmagan. Sharqiy Sahrodagi avvalgi deb taxmin qilingan yodgorliklardan so'ng, Nigerning Sahro hududida miloddan avvalgi 4700-yillarga



kelib megalitik yodgorliklarga ega bo'lgan tumulilar rivojlandi. Fekri Hassan (2002) fikricha, Niger Sahrosidagi va Sharqiy Sahrodagi megalitik yodgorliklar qadimgi Misrning mastaba va piramidalari uchun dastlabki namunalar bo'lgan bo'lishi mumkin. Misrning Predinastik davrida turli hududlarda (masalan, Naqada, Helvon) tumulilar mavjud bo'lgan.[1]

Erta Dinastiya davridan boshlab (miloddan avvalgi taxminan 3150–2686-yillar), yetarli boyligi bo'lgan misrliklar mastaba deb ataluvchi, kursiga o'xshash to'g'ri burchakli qabrlarga dafn qilingan. Saqqarada 1-sulola oxiriga oid Mastaba 3808 ichida mustaqil qurilgan, tashqi saroy fasadli mastaba ichiga joylashtirilgan, zinapoya-piramidaga o'xshash yirik inshoot topilgan. Arxeologik topilmalar va yozuvlar bu davrga oid shunga o'xshash boshqa inshootlar ham bo'lgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tarixda qayd etilgan birinchi misrlik piramida 3-sulola fir'avni Djoserga tegishli hisoblanadi. Misrshunoslar uni Imhotep tomonidan loyihalashtirilgan deb bilishadi, biroq sulolaviy misrliklarning o'zlari — na o'sha davrdagi, na keyingi yozma manbalarda — uni Djoser piramidasini yaratgan yoki tosh me'morchiligini ixtiro qilgan deb qayd etishmagan. Djoser piramidasi dastlab kvadrat shakldagi mastaba ko'rinishida qurilgan (mastabalar odatda to'rtburchak bo'lgan) va bir necha bor qo'shimcha qatlamlar qo'shish orqali kengaytirilib, bugungi kunda ko'rinib turgan zinapoya-piramida shakliga keltirilgan. Tadqiqotchilar bu shakl marhum fir'avnning ruhi osmonga ko'tarilishi uchun ulkan “zinapoya” vazifasini bajargan deb hisoblaydi.

3-sulolada Djoserdan keyin boshqa piramidalarni qurish urinishlari bo'lgan bo'lsa-da, aynan 4-sulola davrida — zinapoya piramidadan haqiqiy piramida shakliga o'tish jarayonida — Meidum, Dahshur va Giza kabi buyuk piramidalar barpo etildi. 4-sulolaning oxirgi hukmdori Shepseskaf piramida qurmagan. 5-suloladan boshlab esa turli sabablarga ko'ra qurilish ko'lami va aniqligi keskin pasayib, piramidalar kichikroq, sifati pastroq va shoshilinch qurilgan bo'lib qoldi. 6-sulola oxiriga kelib piramida qurilishi deyarli to'xtadi va faqat O'rta Podsholik davrida yana yirik piramidalar qurildi, biroq bu safar asosan tosh o'rniga xom g'isht



ishlatilgan. Misrning o'zida piramida qurilishi tugaganidan ancha keyin, hozirgi Sudan hududida piramida qurilishi yana jonlandi. Bu Misrning katta qismi Kush qirolligi hukmronligi ostiga o'tganidan keyin yuz berdi. Napata markaz bo'lgan bu davr — 25-sulola — miloddan avvalgi 750-yildan 664-yilgacha davom etgan. Kush tarixining Meroe davri (miloddan avvalgi 300-yildan milodiy 300-yilgacha) piramida qurilishining to'liq tiklanishi bilan ajralib turadi. Bu davrda poytaxt shaharlari yaqinida Misr an'anasidan ilhomlangan qariyb 180 ta mahalliy qirollik piramidalari qurilgan.[5]

Ayyubiyalar sulolasining ikkinchi sultoni Al-Aziz Usmon (1171–1198) Giza piramidalar majmuasini vayron qilishga harakat qilgan. Ammo vazifa juda ulkan bo'lib chiqqani uchun u faqat Menkaura piramidasiga biroz zarar yetkazgach, bu urinishdan voz kechgan.

Misr piramidalari shakli, misrliklar yer yaratilgan deb hisoblagan ibtidoiy tepani ifodalashi mumkin. Piramida shakli, shuningdek, quyoshning pastlayotgan nurlari ramzi sifatida talqin qilinadi. Ko'pgina piramidalar pardozlangan, juda yaltiroq oq ohaktosh bilan qoplangan bo'lib, uzoqdan qaralganda yorqin va charog'on ko'rinish berishi uchun shunday qurilgan. Piramidalarga quyosh nuri yoki yorqinlikka ishora qiluvchi nomlar ham berilgan. Masalan, Dahshurdagi Egri piramidaning rasmiy nomi "Janubiy Yarqiragan Piramida", El-Lahundagi Senusret II piramidasining nomi esa "Senusret Yarqiraydi" bo'lgan. Piramidalar dafnotgoh yodgorliklari ekani umumiy qabul qilingan bo'lsa-da, ularning paydo bo'lishiga asos bo'lgan diniy g'oyalar borasida hali ham bahslar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar piramidalar "tirilish mashinasi" sifatida loyihalashtirilgan bo'lishi mumkinligini taklif qiladi. Misrliklar tungi osmonning yulduzlar go'yo atrofida aylangandek ko'rinadigan qorong'i qismi osmonlarga kiriladigan haqiqiy darvoza deb hisoblashgan. Buyuk Piramidaning asosiy dafn xonasidan o'tib, piramidaning butun tanasi bo'ylab yuqoriga cho'zilgan tor shaxtalardan biri aynan shu osmon hududining markaziga qarab yo'nalgan. Bu holat piramida marhum fir'avnning ruhini sehrli ravishda xudolar makoniga "uchirib yuborish" uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Barcha Misr piramidalari Nil daryosining g'arbiy



qirg'og'ida qurilgan. Chunki misrliklar mifologiyasida g'arb — quyosh botadigan joy — o'liklar olami bilan bog'langan.[3]

Abu Rovash. Abu Rovash — Misrdagi eng shimolda joylashgan piramida joylashgan hudud bo'lib, bu Xufuning o'g'li va vorisi Djedefre piramidasidir. Avvallari bu piramida hech qachon to'liq qurilmagan deb o'ylangan, ammo hozirgi arxeologik fikrga ko'ra, nafaqat to'liq qurilgan, balki dastlab Menkaura piramidasining hajmiga teng bo'lgan. Bu esa uni Misrdagi eng yirik olti yoki yetti piramidadan biri qatoriga qo'yar edi. Hududning yirik yo'l kesishmasiga yaqin joylashgani uni tosh qazib olish uchun qulay manbaga aylantirgan. Rim davridan boshlangan tosh qazish ishlari natijasida piramidadan deyarli hech narsa qolmagan — faqat piramidaning yadro qismini tashkil qilgan tabiiy tepalik ustiga joylashgan taxminan o'n beshta tosh qatlamigina saqlanib qolgan. Uning yonidagi kichik sun'iy (satellit) piramida esa ancha yaxshi holatda saqlangan.[3]

Giza platosida Xufu piramidasi (shuningdek "Buyuk Piramida" yoki "Cheops piramidasi" nomi bilan ham tanilgan), undan biroz kichikroq bo'lgan Xafra piramidasi (yoki Kefren), nisbatan kamroq hajmli Menkaura piramidasi (yoki Mykerinos), shuningdek "Malikalar piramidalari" deb ataluvchi kichik yo'ldosh inshootlari va Giza Buyuk Sfinksi joylashgan. Uch asosiy piramidadan faqat Xafra piramidasi cho'qqisiga yaqin qismida o'zining dastlabki yaltiroq ohaktosh qoplamasining bir qismini saqlab qolgan. Uning balandroq joyga qurilgani va qurilish burchagining tikroq bo'lgani sabab u Xufu piramidasidan kattaroqdek ko'rinadi, aslida esa balandligi ham, hajmi ham kichikroq. Giza piramida majmuasi qadim zamonlardan beri mashhur sayyohlik maskani bo'lib kelgan. Ellinizm davrida Sidonlik Antipater Buyuk Piramidani "Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi" ro'yxatiga kiritganidan keyin uning shuhrati yanada ortgan. Hozirgi kunda o'sha yetti mo'jizadan faqat Buyuk Piramida saqlanib qolgan yagona inshootdir.[1]

Saqqara. Bu hududda joylashgan yirik piramidalarga Djoser piramidasi — umuman olganda, dunyoda ishlov berilgan toshdan qurilgan eng qadimgi monumental inshoot sifatida tan olingan — hamda Userkaf piramidasi, Teti piramidasi va Misrning Birinchi O'rta Davriga oid Merikare piramidasi kiradi.



Saqqarada, shuningdek, Unas piramidasi ham mavjud bo‘lib, u Misrdagi eng yaxshi saqlangan piramida yo‘laklaridan biriga ega. Userkaf piramidasi bilan birgalikda Unas piramidasi Ramzes II ning o‘g‘li Xamvase tomonidan amalga oshirilgan tarixdagi eng qadimgi restavratsiya ishlaridan birining obyekti bo‘lgan. Saqqarada Djoserning vorisi Sekhemxetning tugallanmagan zinapoya piramidasi ham joylashgan bo‘lib, u “Ko‘milgan Piramida” nomi bilan mashhur. Arxeologlarning fikricha, agar bu piramida to‘liq qurib bitkazilganida, Djoser piramidasidan ham yirik bo‘lar edi. Saqqaraning asosiy piramida maydonidan janubda Pepi I, Djedkare Isesi, Merenre, Pepi II va Ibi piramidalari kabi keyinroq qurilgan kichik piramidalar majmuasi joylashgan. Ularning aksariyati juda yomon saqlangan. To‘rtinchi sulola fir‘avni Shepseskaf o‘z avlodlari kabi piramida qurishga qiziqmagan yoki bunga imkoniyati bo‘lmagan. Uning qabri Saqqaraning janubida joylashgan bo‘lib, piramida o‘rniga g‘ayrioddiy darajada katta mastaba va qurbonlik ibodatxonasi majmuasi sifatida qurilgan. U “Mastabat al-Fir‘aun” nomi bilan mashhur. 2008-yil oxirida Saqqaraning shimoliy qismida ilgari noma‘lum bo‘lgan yana bir piramida topildi. U Tetiyning onasiga tegishli qabr bo‘lishi mumkin deb hisoblanadi. Hozirgi balandligi taxminan 5 metr bo‘lib, asl balandligi 14 metrga yaqin bo‘lgan.[6]

Xulosa. Qadimgi Misr piramidalari va ehromlari insoniyat sivilizatsiyasining eng yuksak me‘moriy, diniy va ilmiy yutuqlaridan biridir. Ular minglab yillar davomida nafaqat Misr madaniyatining ramzi, balki butun jahon tarixining bebaho merosi sifatida qadrlanib kelmoqda. Har bir piramida o‘zida qadimiy misrliklarning ruhiy dunyosini, kosmik tasavvurlarini, davlat tuzilmasini, ijodiy tafakkurini va ilm-fan sohasidagi ulkan salohiyatini mujassamlashtiradi. Bugungi kunda ham piramidalar insoniyat tafakkurini o‘ziga jalb etib, ularga nisbatan ilmiy qiziqish, tadqiqot va izlanishlar to‘xtagani yo‘q.

Piramidalar qurilish texnologiyasi, ularning astronomik mosligi, geometrik aniqligi va me‘moriy mukammalligi qadimgi misrliklarning matematika, geometriya, astronomiya va muhandislik sohalarida nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. Giza platosidagi Xufu, Xafra va Menkaura piramidalari o‘zining ulkan hajmi, murakkab tuzilishi va yuqori hisob-kitob aniqligiga ko‘ra hozirgi



zamon olimlarini ham hayratga solmoqda. Bunday ulkan inshootlarni qurish nafaqat texnik bilimlarni, balki mukammal tashkilotchilik, mehnat taqsimoti va kuchli davlat boshqaruv tizimini ham talab etgan. Qadimgi Misr jamiyatida piramidalar diniy-ma'naviy markaz sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Fir'avnlarning ilohiylashtirilishi, ularning osmon xudolari bilan bog'liq deb hisoblanishi, ruhni abadiylikka eltuvchi "osmon zinapoyasi" haqidagi e'tiqodlar piramidalar shakli va vazifasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, piramidalarning barcha inshootlari — ibodatxonalar, yo'laklar, mastabalar va qo'shimcha qurilmalar — murakkab diniy marosimlarning bir butun tizimini tashkil etgan. Piramidalar ming yillar davomida tabiat ofatlari, qum bosishi, urushlar, talonchilik, inson omili kabi ko'plab xatarlar ta'siriga qaramay, hanuzgacha o'zining ulug'vor shaklini saqlab kelayotgan bo'lsa, bu Misr me'morligining naqadar puxta, mustahkam va ilmiy yondashuv asosida qurilganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Eng asosiysi, piramidalar bugungi kunda ham insoniyat uchun bebaho ma'naviy va ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi: ular orqali o'tmishning butun bir sivilizatsiyasi, uning e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti va ilmiy darajasi haqida boy ma'lumotlar olinmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Egyptian_pyramids
2. <https://medium.com/illumination/the-mysteries-of-egypts-pyramids-and-the-secrets-of-the-pharaohs-4d6b22b4587a>
3. <https://www.history.com/articles/the-egyptian-pyramids>
4. D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Birkuziyev, B.B. Xaynazarov. "Jahon Tarixi". Innovatsiya-Ziyo – 2020. 33-34 p
5. D.J. Urakov, A.G. Xolliyev, S.I. Gabrielyan, R.N. Tursunov, O.A. Maxmudov, A.A. Rozakov, A.A. Birkuziyev, B.B. Xaynazarov, R.X. Djurayev, N. Kenjayev, D.X. Ziyayeva, G.K. Otarbayev, J.E. Turekulova. "Jahon tarixi". Metodist nashryoti – 2023. 41-42 p
6. A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy – "Tarix qadimgi dunyo". "Yangiyo'l Poligraf Servis" – 2017. 100 – 101p